INGLIZ TILI DARSLARIDA LUG‘ATNI FAOLLASHTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLAR VA KOMMUNIKATIV VAZIFALARNING O‘RNI

Topiljonova Madina Latibjon qizi
Qibray tumani 23-maktab

Annotatsiya. *Maqolada 8-9-sinf o‘quvchilarida ingliz tili lug‘atini faollashtirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Kuzatuvlarga tayanib, o‘yin va vazifalarga asoslangan mashqlar tizimi taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *lug‘atni faollashtirish, didaktik o‘yin, kommunikativ vazifa, ingliz tili, metodika.*

Аннотация. *В статье рассматривается проблема активизации английской лексики у учащихся 8-9 классов. На основе наблюдений предлагается система упражнений с использованием игр и коммуникативных заданий.*

Ключевые слова: *активизация лексики, дидактическая игра, коммуникативное задание, английский язык, методика.*

Abstract. *The article deals with the problem of activating English vocabulary among grade 8-9 students. Based on classroom observations, a system of game-based and task-based activities is proposed.*

Keywords: *vocabulary activation, didactic games, communicative tasks, English language teaching, methodology.*

Kirish. Chet tilini o‘qitishdan maqsad o‘quvchida muloqot qila olish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Amalda esa manzara boshqacha. 8-9-sinf o‘quvchisi darslikdagi so‘zlarni yodlaydi, yozma ishda to‘g‘ri yozadi, biroq gapirishga kelganda ularni eslay olmaydi. Bu passiv va faol lug‘at o‘rtasidagi tafovutdir (Schmitt, 2000; Nation, 2001). Kuzatuvlarimizga ko‘ra, o‘quvchilar telefon o‘yinlaridagi inglizcha so‘zlarni darslikdagi so‘zlardan ancha tez o‘zlashtiradi. Sababi oddiy: o‘yinda so‘z vaziyat bilan birga keladi.

Nazariy asos. Nation (2001) so‘z xotirada mustahkamlanishi uchun uni turli vaziyatlarda bir necha marta uchratish va nutqda ishlatish zarurligini ta’kidlaydi. Thornbury (2002) lug‘at ustidagi ishni tanishtirish, mustahkamlash va qo‘llash bosqichlariga ajratadi. Vazifaga asoslangan yondashuvda til ma’no almashinuvi

jarayonida o‘zlashadi (Willis, 1996; Ellis, 2003). O‘yinlar esa motivatsiyani oshiradi va o‘quvchiga so‘zni nutqda sinab ko‘rish imkonini beradi (Wright va boshq., 2006; Harmer, 2015). Kommunikativ yondashuvning umumiy asoslari Krashen (1982), Richards va Rodgers (2014), o‘zbek metodistlaridan Jalolov (2012) asarlarida yoritilgan.

Kuzatuv. O‘yindagi so‘zlarning tez o‘zlashishini to‘rt omil bilan tushuntirish mumkin: so‘z aniq vaziyatga bog‘liq; takrorlanish o‘z-o‘zidan yuz beradi; o‘yinchi natijaga qiziqadi; so‘z darhol qo‘llaniladi. Darslikda esa lug‘at ko‘pincha ro‘yxat shaklida beriladi. Vaziyat yo‘q, qo‘llash imkoniyati kam. Natijada so‘z qisqa muddatli xotirada qoladi va tez unutiladi.

Buni bir misolda ko‘rish mumkin. 8-sinfda “should” modal fe’li o‘tilganda o‘quvchilarga bir-birining hozirgi holatidan kelib chiqib maslahat berish topshirig‘i berilgan edi: kimdir charchaganini aytadi, sinfdoshi esa “You should get some rest” kabi javob qaytaradi. Vaziyat real va shaxsiy bo‘lgani uchun o‘quvchilar should so‘zini va uning qo‘llanish o‘rinlarini darslikdagi mashqlarga qaraganda ancha yaxshi eslab qolishdi. Bu holat ham shuni ko‘rsatadi: so‘z qachonki o‘quvchining o‘z fikri va real vaziyati bilan bog‘lansa, u yodda qoladi.

Taklif etilayotgan mashqlar. Prepare darsligidagi mavzular (xarid, sayohat, salomatlik, texnologiya) asosida to‘rt xil mashq taklif etiladi:

–**“Find someone who...”** — o‘quvchilar yangi so‘zlar bilan savol tuzib, sinfdoshlarini so‘rab chiqadi.

–**“At the shop” rolli o‘yini** — sotuvchi va xaridor rolida so‘zlar amalda ishlatiladi.

–**So‘z topish musobaqasi** — jamoalar vaqt ichida mavzuga oid ko‘proq so‘z yozadi.

–**Rasm asosida hikoya** — kamida 8 ta yangi so‘z ishlatiladi.

Har bir mashq uch bosqichda o‘tadi: tanishtirish, boshqariladigan mashq, erkin qo‘llash. Shunda so‘z bir dars davomida 3-4 marta uchraydi. Bir shart bor: o‘qituvchi qoidalarni oldindan tushuntirib, oxirida xatolarni tahlil qilishi kerak. Aks holda o‘yin oddiy ko‘ngilochar faoliyatga aylanib qoladi.

Xulosa. Didaktik o‘yinlar va kommunikativ vazifalar passiv lug‘atni faol nutqqa o‘tkazishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Taklif etilgan tizim mashg‘ulotni real vaziyatga yaqinlashtiradi va so‘zlarning takror qo‘llanishini ta’minlaydi. Uning samaradorligi keyingi bosqichda tajriba-sinov (kirish va yakuniy test, tajriba va nazorat sinflari) orqali tekshiriladi.

Adabiyotlar

1. Ellis R. Task-based Language Learning and Teaching. Oxford: OUP, 2003.

2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 5th ed. Harlow: Pearson Longman, 2015.

3. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon, 1982.

4. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: CUP, 2001.

5. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. Cambridge: CUP, 2014.

6. Schmitt N. Vocabulary in Language Teaching. Cambridge: CUP, 2000.

7. Thornbury S. How to Teach Vocabulary. Harlow: Longman, 2002.

8. Willis J. A Framework for Task-Based Learning. Harlow: Longman, 1996.

9. Wright A., Betteridge D., Buckby M. Games for Language Learning. Cambridge: CUP, 2006.

10. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.